

XIVA XONLIGIDA SUDLOV TIZIMI

Vaxobov Dastonbek Abdumannob o'g'li

University of business and science

nodavlat oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi

Annotatsiya:

Mazkur tezisda Xiva xonligidagi sudlov tizimining tashkil etilishi, qanday sudlar borligi ularning tuzilish, tarkibi va uning faoliyati hamda sud jarayonining qay tartibda va qaysi vaqtlarda tashkil etilishi haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: “xon sudi”, Muhammad Yusuf Bayoniy, shohid, fatvo, qozixona.

Xiva xonligi sud tizimi tashkil etilishi, tuzilishi va vakolat doirasi bo'yicha O'rta Osiyo xonliklari sudlov hokimiyatiga o'xshash bo'lgan. Davlatchilikning muhim tarmog'i bo'lgan sud tizimi, uning shakllanishi, taraqqiyoti va holati jamiyatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ma'rifiy yuksalish darajasi bilan belgilangan.

Tarixiy manbalar va arxiv hujjatlarida Xiva xonligining turli davrlardagi harbiy salohiyati va qo'shin tuzilishi haqida juda ko'p ma'lumotlar bo'lsa-da, bu mavzu maxsus tadqiq etilmagan. XVI–XX asr birinchi choragi davomida, aniqrog'i, 1920 yili Xiva xonligi tugatilib, sho'ro hukumati o'rnatilgandan keyingi 1929 yilgacha ham Xorazmda sud tizimi musulmon dini ahkomlariga suyang'an islom huquqshunosligi asosida fuqarolik va jinoyat ishlarini ko'ruvchi shariat qozilari tomonidan amalga oshirildi.

Shuni qayd etish lozimki, xonlikda sud tizimi ixtisoslashtirilgan tizimga ega bo'lgan. Sud tizimi vakolat doirasi va faoliyat shakliga ko'ra, joylardagi quyi shahar (tuman) fuqarolik va jinoyat ishlari bilan shug'ullanuvchi qozi sudlari, qozi sudlar ustidan boshqaruv va nazorati bilan shug'ullanuvchi qozikalon, saroy markaziy harbiy sudi hamda siyosiy, o'ta og'ir va mansabdor shaxslarga oid jinoyatlarni ko'ruvchi xon sudidan tashkil topgan.

Sud tizimini tahliliy o'rganish asnosida unda jiddiy o'zgarishlar kuzatilmagan, deyish mumkin. Chunonchi, tizimda o'rta asrlarga xos xususiyatlar saqlanib qolgan. Jumladan, mahalliy tarixnavis Muhammad Yusuf Bayoniy tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, xon sudi xonlik tugatilgunga qadar o'z vakolatini to'la amalga oshirgan[1]. Joylardagi qozi sudlar (islom sudlari, shariat sudlari) ham to xonlik tugatilgunga qadar faoliyat olib borgan. Sohada rus podsholigi mustamlakachiligi davriga kelib xonlikning huquq tizimiga o'zgartishlar kiritilishi bilan hamohang tarzda ba'zi o'zgartishlar amalga oshirilgan. Bu holat rus davlati bosqini natijasida imzolangan ikki tomonlama shartnomada ham o'z aksini topgan. Shu asnoda qozi sudlarning vakolat doirasi nisbatan o'zgargan.

Jumladan, M. Yo'ldoshevning “Xiva xonligi mutlaq davlat bo'lgani uchun oliy sud hokimiyati xon ixtiyorida bo'lsa-da, biroq shunga qaramay, qozi kalon ham bor edi” degan fikri ko'rib

chiqilgan edi. Bu o'rinda shu fikrni ilgari suramizki, islom ahkomiga suyanagan oliy sud hokimiyati rasman hech qachon xon qo'lida bo'lgan emas. Mutlaq hokimlik imtiyozlaridan foydalangan xon faqat oliy jazo hisoblangan o'lim jazosiga oid hukmlarni millat otasi sifatida ko'rib chiqqan va unga o'zgartishlar kiritish huquqiga, qozilarning muhim ishlar yuzasidan hukmlarini tasdiqlash vakolatiga ega bo'lgan. Demak, sud tizimida oliy hokimiyat adolatlik tamoyilining nazoratini yuritish uchungina xonga tegishli bo'lgan. Shariatga asoslangan mamlakat sud tizimi boshqaruvi, jazolar va ularning ijro etilishi nazoratini qozikalon yuritgan. Bu borada, sud tizimi oliy va markaziy boshqaruv organlaridan mustaqil faoliyat yuritgan, davlat hokimiyatining alohida tarmog'i bo'lgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Xon raislik qiluvchi oliy va markaziy mansabdor shaxslardan iborat "xon sudi" manbalarda turlicha nom ostida qayd etiladi. Jumladan, "xon boshliq amaldorlar sudi" deb ham ataladi[2]. Mazkur sudda siyosiy jinoyatlar, umuman davlat va jamiyatga qarshi, shuningdek shariatni qo'pol tarzda buzish bilan bog'liq og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, unda oliy va markaziy boshqaruv amaldorlarining huquqbuzarlik va jinoyat sodir etish hollari ham muhokama qilingan va hukm chiqarilgan.

Tarixchilar yozib qoldirgan arz-dod so'rash, hatto fuqarolik masalalarini joylardagi qozilardek ko'rib chiqish xon uchun musulmon millati va xalq otasi sifatida odillikni amalda ko'rsatish majburiyati yuzasidan amalga oshgan. Bu mutlaq hokim xonlarning xudo va xalq oldidagi burchi va adolatparvarlik shiori ostida ado etadigan vazifasi bo'lgan. Albatta, bu xon va saroydagi sud tizimiga aloqador shaxslar idora etuvchi «oliy sud» degani emas. Gunohkorning aybi isbotlangach, xon tomonidan chiqariladigan oliy jazo ham ana shu omillar bilan izohlanadi. Ogahiy, Bayoniy, Komyob kabi tarixchilar masalaning aynan ana shu jihatlari yuzasidan voqeaning shar'iyiligini ham qayd qilishgan.

Odatda, qozilar ertalab bomdod namozidan so'ng kechga qadar qozixonada ishlarini ko'rib chiqqan va turli hujjatlarni tasdiqlagan[3].

Sud muhokamasi jarayoni tartibi quyidagicha bo'lgan: 1) arz bilan tanishib chiqish; 2) tomonlar va shohid (guvoh)larning guvohligi (ko'rsatmalari)ni eshitish; 3) to'xtamga kelish va mufti tomonidan fatvo yozish (rivoyat tuzish); 4) maqbul bo'lgan rivoyat asosida hukm chiqarish.

Sud jarayoni jabrlanuvchi va uning yaqin qarindoshlari tomonidan berilgan arz, shuningdek mas'ul mansabdor shaxslar tomonidan aniqlangan holatlarga asosan ko'rib chiqilgan[4]. Jabrlanuvchi o'z da'vosini qaytib olish va aybdorni avf etishni so'rash yo'li bilan hukm ijrosini bekor qilish huquqiga ega bo'lgan. Sud jarayoni yakuni yuzasidan (jinoyat yoki fuqarolik ishlari bo'yicha) hukm yoki qaror chiqarilgan.

Shunday qilib, Xiva xonligida sud ishlari qozikalon, joylarda qozilar tomonidan yuritilgan. Sud tizimida yana xon sudi va harbiy sud ham faoliyat olib borgan. Qozikalon va qoziaskar davlat tuzumidagi yuqori mavqega ega mansabdor shaxslar sanalgan. Sud ishlarini yuritishda

o'troq aholi hududlarida shariat normalariga, ko'chmanchi aholi hududlarida esa odat huquqiga ham tayanilgan.

Umuman olganda, Xiva xonligining sud tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uning tuzilishi, shakllantirilishi hamda shariat va odat asosida sud ishlarini yurituvchi qozilar faoliyatini chuqur tahliliy o'rganish katta ilmiy ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bayoniy. ShajaraiXorazmshohiy. – T., 1991. – B.233–266
2. Yo'ldoshev M. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. – T., 1959. – B.279–280
3. Karimov E. XVII-XX asr boshlaridagi Xiva xonligining Qozi hujjatlari va xon yorliqlari registrarlari. – T.: Fan, 2007. – B. 44.
4. Zohidov S. F., Nurjonov K. Feruz haqida rivoyatlar. – Urganch, 1994. –B. 7–10
5. Abdulg'ozzi Bahodirxon. Shajarayi turk. – T.:1990. – B.146